



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA
EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTISH VA UNING
ISTIQBOLLARI**

Irgasheva Shaxnoza Qushoqboyevna

Boltayeva Shoxsanam Abdisamat qizi

Annotatsiya

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakllantirish va ekologik bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashdagi muammolar hamda yechimlar.

Kalit so'zlar: Ekologik ta'lim, ommaviy axborot, ekologik ong, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, shaxsiy gigena, oila muhit va "Yosh ekologlar" harakati. Ekologik ta'lim va tarbiyani olib borishda ommaviy axborotning roli juda katta. Birgina televideniya orqali ekologik mazmundagi ko'rsatuvlarning doimiy ravishda berib borilishi aholi, ayniqsa, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berish orqali ularda yuksak ekologik ong, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, biologik xilma-xillikni muhofaza qilishdek yuksak vazifalarni bajarishga hissa qo'shish zarur. Xalqimizni milliy hamda diniy qadriyatlarini shaxsiy gigena, tozalik va ozodalikdan tortib o'zi yashab turgan joyini turli xil chiqindilar bilan ifloslantirmaslik, tabiat ne'matlarini isrof qilmaslik, atrofni ko'kalamzorlashtirishni keng targ'ib etadi. Ushbu tushunchalar insonlarning yoshligidanoq o'z oilasidagi keksa avlod vakillari tomonidan ular ongiga singdirib boriladi. Demak insonda dastlabki tushunchalar o'z oilasi paydo bo'ladi. Keyinchalik tushunchalar bog'cha, maktab, litsey, oliy o'quv yurtlarida kengaytiriladi va rivojlantiriladi. Ekologik tarbiyaning keyingi rivojlanishi va samarasi eng avvalo oilada qo'yilgan poydevorga bog'liq ekanligini bugun hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi. Global miqyosda ekologik muammolar yanada kuchayib, uning ta'siri O'zbekistonda ham yaqqol sezilayotgan, insoniyatning atrof – muhitga bo'lgan salbiy ta'siri yanada ortib borayotgan, tabiat ne'matlaridan ayovsiz foydalanilayotgan bugungi sharoitda bu yanada dolzarblik



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

kasb etadi. Ekologik tarbiya – shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim, jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma’naviy-ma’rifiy pedagogik jarayon. Bu jarayonda yuqorida ta’kidlanganidek, xalqimizning amaliy urf-odatlarini va qolaversa, oila muhiti muhim o‘rin tutadi. Har bir oilada yoshi kattalar ommaviy axborot vosilari, gazeta va jurnallarda ekologik madaniyatni shakllantirish, hayvonot va qushlar dunyosi, o‘lkashunoslik, ekoturizm kabi mavzularidagi film va ko‘rsatuvlarni o‘z farzandlari bilan birga ko‘rib, muhokama qilishlari hamda ona tabiat qo‘ynida amaliy ishlarni bajarish, yani bog‘lar yaratish, turli daraxt va gul ko‘chatlari o‘tkazish, uy hayvonlarini parvarishlash, tomorqada turli – xil ekinlarni yetishtirish orqali yosh avlodda ekologik ta’lim tarbiya asosli ravishda shakllantirilishi mumkin. Tomchilardan yig‘ilib, dengiz bo‘ladi degan naqlga muvofiq ekologik sohasida qilinayotgan kichik – kichik ishlar yig‘ilib, pirovord natijada o‘lkamiz tabiati musaffoligini saqlab qolishda va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim omil bo‘ladi. Keksa avlodning oilada yurish-turishi, hatti-harakati, pandnasihati, hayotiy, tajribasi shu oilada o‘sayotgan yosh avlodga o‘rnak va ibrat bo‘ladi.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”da ham atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolar, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur masala bo‘yicha keyingi yillar ichida O‘zbekistonda 25 tadan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ularning amaliy tadbqiqiga doir malaka oshirish tizimi uchun talablar kiritildi.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri turli miqyosda inson xavfsizligi, xususan uning bir elementi bo‘lmish HFXni ta’minlashdir. Mazkur o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 8-mayda “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli, 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-aprelda “Maktabgacha hamda umumta’lim muassasalari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 352-son, 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-sonli qarorlari hamda Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 30-apreldagi 20/1-sonli, 2018-yil 30-avgustdagi 701-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi qoshida tuzilgan idoralararo Kengashi tomonidan milliy ta'lim tizimi, jumladan maktabgacha ta'lim tizimi uchun ekologik ta'lim-tarbiya va hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va uni malaka oshirish kurslarining umuta'lim fanlariga joriy etish vazifasini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.

Ekologik madaniyat yoshlar va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda haqiqat - xayrixohlik – tabiatni avaylash qadriyatlarini namoyish etadi. Hozirgi davrda fan va texnikaning rivojlanishi yoshlar farovonligida sezilarli yaxshilanishlarni amalga oshirdi va yashash joylari ko'p yo'nalishlarda kengaytirildi, ammo ekologik muhit yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Zero "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bejizga aytilmagan. Yoshlarda ta'lim tarbiya, ekologik madaniyatning yanada oshishida keksa avlodlarning o'rne beqiyos, ularning bilim va tushunchalari yoshlarning ekologik ongi va ekologik madaniyatini yanada yuksalishida o'rnak va ibratdir. Shubhasiz, bugungi kunda yoshlar tabiiy dunyoning bizga bo'lgan munosabatiga olib kelishi kerak bo'lgan oqibatlar axloqiy masaladir. Rivojlanish strategiyasida ekologik madaniyat ta'limi faoliyatini takomillashtirish va ekologik madaniyatni shakllantirish barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy ishlab chiqarish va ekologik muhit o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqarish uchun asosdir. Bugungi globallashib borayotgan jamiyatda yosh avlodni tabiatni asrash ro'hida tarbiyalash zamon talabiaga aylanib bormoqda. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari orasida tabiatni asrash, yovayi tabiatga mehr muhabbatini o'yg'otish yo'lidagi kamchiliklar mavjudligicha qolmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohatlar natijasi ularoq maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilar o'rtasida tabiatga ixtiyotkorona munasabatda bo'lish va tabiat bilan hamnafas bo'lish borasida amali ishlar olib borilmoqda. Bog'cha tarbiyalanuvchilarida ekologik ta'lim tarbiyani va ekologik ma'daniyatni yanada jadallashtirish hamda yosh avlodni tabiat jonkuyari qilib atarbiyalashda quyidagi chora tadbirlarni ammalga oshirish lozim.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

- “Yosh ekologlar” harakati doirasida tuman, shahar va respublika darajasida atrof-muhit muammolari yuzasidan “Tabiatga mehr” innovatsion va intellektual loyihalar tanlovini o‘tkazishni bog‘cha yoshidagi bolalarda amalga oshirish lozim;
- ommaviy axborot vositalarida “Tabiat madhiyasi” (musiqa va matni) uchun tanlov e‘lon qilish va bog‘cha yoshidagi yoshlar o‘ratsida ham joriy qilish;
- tabiatni asrab-avaylash borasida butun jahon va mamlakatimizda nishonlanadigan muhim ekologik sanalarga bag‘ishlab tadbirlar tashkil etish va unda “Yosh ekologlar” harakati faollarini rag‘batlantirish;
- yosh ekologlar safini kengaytirish maqsadida “Yosh ekologlar” harakatini bog‘cha yoshidagi bolalar o‘rtasida ham tadbiq qilish;
- tabiatga doir innovatsion loyiha va natijador takliflarga ega salohiyatli yoshlar uchun “Yosh ekologlar” harakati ko‘krak nishonini ta‘sis etish orqali yoshlar jamoasini shakllantirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharofiddinovich M. A., Jumayevna X. F., Nurali o‘g‘li P. A. SANOAT VA TRANSPORTLARNING ATMOSFERA HAVOSIGA ZARARLI TASIRI. – 2024.
2. Sharofiddinovich M. A. et al. O‘ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYAGA O‘TISHINING AFZALLIKLARI. – 2024.
3. Sharofiddinovich M. A. et al. O‘ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYAGA O‘TISHINING AFZALLIKLARI. – 2024.
4. Sharofiddinovich M. A., Jumayevna X. F., Nurali o‘g‘li P. A. SANOAT VA TRANSPORTLARNING ATMOSFERA HAVOSIGA ZARARLI TASIRI. – 2024.
5. Maxammadiyev A. S., Mamaraimova U. U. ATMOSFERA HAVOSI TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 15. – C. 374-377.
6. Sharofiddinovich M. A. et al. BUGUNGI KUNDA CHIQINDILARGA TOGRI YONDASHUV DAVR TALABI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 169-171.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

7. Sh M. A. SURXONDARYO VILOYATIDA KUZATILADIGAN CHANG BO 'RONLARINING INSONLAR SALOMATLIGIGA TASIRI //Экономика и социум. – 2024. – №. 10 (125). – С. 239-242.
8. Abdulazizovna K. S., Sharofiddinovich M. A., Sharofiddin o'g'li M. K. SURXONDARYO VILOYATI ATMOSFERA XAVOSIGA ZARARLI TASIR ETUVCHI SANOAT VA TRANSPORTLAR //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 598-600.
9. Мухаммадиев А. Ш. и др. ИНТЕРФАОЛ ДАРСНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ШАКЛЛАРИ, МЕТОДЛАРИ ВА ВОСИТАЛАРИ //ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. – 2019. – С. 135-139.